

II-SHO'BA

MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISHDA NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI.

MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISHDA MAHALLA VA TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGINING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19187713>

Teshaboyev Zikrillo Abdullayevich

*Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti, dotsent
e-mail: teshaboyevzikrillo28@gmail.com, telefon: (998) 94- 555-00-01*

Annotatsiya

Ushbu maqolada mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligining mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, unda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligida amalga oshiriladigan ishlar samaradorligini ta'minlash yo'llari misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: hamkorlik, mahalla, maktab, murojaatnoma, oila, o'quvchi, ta'lim muassasasi, yoshlar.

Abstract

This article explores the role and importance of community and educational institution collaboration in community development and societal advancement. It also highlights, with examples, ways to ensure the effectiveness of work carried out in cooperation with the family, mahalla, and educational institution.

Keywords: cooperation, mahalla, school, appeal, family, student, educational institution, youth.

Аннотация

В данной статье раскрывается роль и значение сотрудничества махалли и образовательного учреждения в развитии махалли и возвышении общества. Также на примерах освещены пути обеспечения эффективности работы, осуществляемой в сотрудничестве семьи, махалли и образовательного учреждения.

Ключевые слова: сотрудничество, махалля, школа, обращение, семья, ученик, бразовательное учреждение, молодежь.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasi Yangi O'zbekiston deb e'tirof etilayotgan jonajon Vatanimizning nimalarga qodir ekanligini, ko'zlagan maqsadi esa o'z xalqiga, yoshlariga farovon hayotni, buyuk kelajakni hadya etish ekanligini butun dunyoga yana bir bor namoyon etdi.

Ayniqsa Prezidentimiz tomonidan 2026-yilni "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb nomlash taklif etilganligi keng jamoatchilik tomonidan juda katta olqishlar bilan kutib olindi. Chunki bu taklif respublikamizdagi barcha mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yoshlarning

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

ilmiy salohiyatini va jismoniy faoliyatini yuksaltirish maqsadida yangi infratuzilmalarini barpo etishga milliardlab mablag'lar yo'naltirishga asos bo'ladi.

Murojaatnomada yurtimizda 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim 6 ta ustuvor yo'nalishdan iborat dasturning barcha yo'nalishlarida ham mahalla yoshlarining dunyodagi barcha tengdoshlaridan kam bo'lmagan sharoitlarda o'qishi, kelgusida egalashi mumkin bo'lgan zamonaviy kasblarni tanlashda shart-sharoitlar yetarli bo'lishi uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan ishlarga alohida e'tibor qaratildi. Bunda jumladan Davlatimiz rahbari tomonidan Murojaatnomada e'lon qilingan 6 ta ustuvor yo'nalishning "Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish" deb nomlangan 4-yo'nalishida mahalla, jamoatchilik va ta'lim muassasalari hamkorligi, kasb tanlash va ish o'rinlari yaratish mehnat bozori talablarini o'rganishdagi birgalikda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, 2026-yilda yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ibot qilish, kitobxon yoshlarni ko'paytirish maqsadida maktab kutubxonalarini har yili o'n million dona badiiy adabiyotlar bilan boyitib borish belgilandi. Bundan asosiy ko'zda tutilgan maqsad o'quvchi va yoshlarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, kitobxon oilalar ko'rik-tanlovlarini mahalla yettiligi bilan hamkorlikda o'tkazish, yoshlarni tarbiyalashda kitobning o'rni juda ahamiyatli ekanligini tushuntirib borishdan iborat.

METODOLGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktab va mahalla hamkorligining mazmuni va huquqiy asoslari davlat tomonidan e'tirof etilib qonunchiligimizda o'z ifodasini topgan. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majbur ekanliklari belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni 13-moddasida "Fuqarolar yig'inining kengashi ... yosh avlodni tarbiyalash masalalari yuzasidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi" deb ko'rsatilgan.

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 51-moddasida esa voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari bolaning o'qishi, tarbiyalanishi, jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishi uchun mas'ul ekanligi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ta'lim tashkilotlari voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarni tarbiyalashda, ularning jismoniy hamda ruhiy sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlashda, shuningdek individual qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning ota-onasiga hamda boshqa qonuniy vakillariga ko'maklashishi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-277-son qaroriga asosan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilari bilan ishlashda ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida mahalla, maktab, oila va jamoat tashkilotlari hamkorligiga asoslangan tizim joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyundagi "Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 334-son qaroriga asosan "mahalla yettiligi" a'zolari – fuqarolar yig'ini raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha mahalla fuqarolar yig'ini (keyingi o'rinlarda — fuqarolar yig'ini) oldida hisobot berish tartibi belgilandi. Unga ko'ra yoshlar yetakchisi mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, jumladan, ularni "Besh tashabbus olimpiadasi"da ishtirok etishga jalb

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

etish, ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari bandligiga ko'maklashish, iqtidorli yoshlarni izlab topish, iste'dodini ro'yobga chiqarish va ularni qo'llab-quvvatlashga ko'maklashish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, mahalla yoshlarini xorijiy tillarni o'rganishga doimiy qiziqtirib borish masalalarida fuqarolar yig'ini oldida hisobot berib boradi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Yurtimizda keyingi yillarda Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan ta'lim va tarbiya sohasida ta'limning sifati va mazmunini yaxshilash, o'quvchilar va yoshlarda zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni shakillastirish, ta'lim sohasida o'zaro hamkorlikni va integratsiyani rivojlantirish, ta'lim sohasida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish va ommaviylashtirish maqsadida juda katta tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan ta'lim muassasalarida va mahallalarda yoshlarimizga jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun yaratilayotgan sharoitlar sportchi yoshlarimizning dunyo arenarida yurtimiz bayrog'ini yuqori ko'tarishlarida bosh omil bo'lib xizmat qilmoqda. Sport yo'nalishlarida olimpiada va jahon chempioni bo'lgan sportchilarimizni kutib olish jarayonlarida mahalla vakillarining ishtiroki, jamoat tashkilotlarining moddiy qo'llab quvvatlashlari ham ana shu hamkorlikning natijasidir. Sportchilarga berilayotgan bunday imkoniyatlar yoshlarimizning sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirmoqda. Mahalla raislarining tashabbuslari bilan mahallaning kiraverish qismiga shu hududdagi maktablardan chiqqan fan olimpiadalarining viloyat va respublika bosqichlari g'oliblarining hamda g'olib sportchilarning rasmlari joylashtirilgan "Bular mahallamiz faxri", "Biz ular bilan faxrlanamiz" kabi pannolarni olib qo'yilishi, shuningdek bu yerda mahalla raisining mahallalarda shu yoshlar bilan turli xil uchrashuvlar o'tkazib, yoshlarni kelgusida bunday natijalarni davom ettirishga chaqirishi qolgan yoshlarni ham shunday natijalarga erishishga undaydi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Bugungi kunda maktab ta'lim-tarbiya berish muassasasi emas, balki mahalla va oila bilan hamkorlikda yagona maqsad bilan faoliyat yurituvchi ijtimoiy institutdir".

So'nggi yillarda ta'lim sohasida erishayotgan yutuqlarimiz maktablarning o'quvchilarning o'tonalari, mahalla faollari va jamoatchilik bilan doimiy hamkorlikda ish olib borishlari, ya'ni hamkorligi natijasidir. Shunday ekan ta'lim muassasalari rahbarlarining mahalla va jamoatchilik bilan tizimli va samarali hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yishlari kelgusida yanada yuksak natijalarimizga erishishimizda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari maktab direktori faoliyatining asosiy qismini mahalla yettiligi va jamoatchilik vakillari bilan birgalikda ishlash tashkil etishi natijasida maktablarda juda ko'plab sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldi olinadi. Ayniqsa o'quvchilar davomatini tartibga solishda, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda, o'quvchilarni nazoratsiz qoldirish bo'yicha bu hamkorlik o'z samarasini beradi. "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" shiori ostida o'tkazilgan tadbirlar orqali mahalladagi oilalarning bir-birlariga munosabatlari ham mustahkamlanib boradi, o'zaro hurmat va do'stona munosabat qaror topadi.

Maktab direktori mahalla bilan hamkorlikdagi amalga oshiradigan ishlarini rejalashtirayotganda asosiy e'tiborni quyidagi yo'nalishlarda uzviy va tizimli hamkorlik o'rnatishga qaratishi lozim: mahalla raislari va faollari, jamoatchilik faollari bilan doimiy muloqot olib borish, ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi o'quvchilarni aniqlashda ular yashayotgan mahalla yettiligining aralashuvi nihoyatda yaxshi samara beryotganini ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni sport-sog'lomlashtirish ishlariga jalb qilish mahalladagi mavjud infratuzilmadan, jumladan sport zallari, madaniyat uylari, kutubxonalardan o'quvchilar uchun

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

foydalanish imkoniyatlarini yaratishni ham ko'zda tutadi. Tashkil etiladigan qo'shma tadbirlarda o'quvchilarning ta'lim va tabiyasiga ijobiy ta'sir etuvchi suhbatlar, ijodiy uchrashuvlar, ilg'or kasb egalari bilan muloqotlar va boshqa ko'rinishlarda bo'lishishiga erishishi kerak.

Maktab direktori o'zining mahalla bilan hamkorlikdagi faoliyati bo'yicha strategik rejasida mahallaning jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirishda maktab pedagogik jamoasining roli va vazifalarini aniq ko'rsatib o'tishi zarur. Maktab direktori mahalla faollari va jamoatchilik vakillari bilan o'tkaziladigan yig'ilishlarda Prezidentimizning jazoni ijro etish joylarida ham mahbuslar tomonidan har bir o'qigan kitobi uchun jazo muddatini qisqartirilishi haqidagi takliflarini yetkazib, ota-onalarga davlatimizda qanday bag'rikenglik siyosati amalga oshirilayotganini tushuntirib o'tishi lozim.

Mahalla raisi lavozimiga saylangan rahbar ham o'zining ish faoliyatida ta'lim muassasalarining faoliyatiga alohida e'tibor qaratishi, kam ta'minlangan oila farzandlarini maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlariga imtiyozli joylashtirishda tashkilotchilik qilishi shu mahalladagi bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini yaxshilashga ham amaliy yordam bo'ladi. Mahalla raisi o'z hududidagi iqtisodiy imkoniyati yaxshi bo'lgan oilalarni ta'lim muassasalaridagi, mahalladagi o'tkaziladigan tadbirlarni tashkil etish uchun homiylik ishlariga yo'naltirib bersa mahallaning jamoatchilik oldidagi nufuzi oshib boraveradi.

Davlatimiz tomonidan mahallalar hududlaridagi barcha tashkilotlar va korxonalar mulkchilik shaklidan qat'i nazar shu mahallaning tartiblariga bo'ysunishi belgilab qo'yilgan. Qonunchiligimizda tashkilotlar mahallalarda o'tkaziladigan yig'ilishlar daxldorligiga qarab qatnashishi va zaruratga qarab hisob berishi ham alohida ta'kidlab o'tilgan. Maktab bitiruvchilarini kasblarga yo'llash va ish bilan ta'minlashda hududlardagi tashkilot va korxonalar rahbarlari bilan hamkorlikni ta'minlashda aynan shu mahallalardai tadbirlar katta imkoniyatlar yaratib beradi. Buning uchun maktab rahbari hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlarda ishtirok etadigan korxonalar va tashkilot rahbarlari ushbu tadbirlarda ishtirok etgan maktab o'quvchilari va mahalla yoshlarining bilimlarini, imkoniyatlari va qobiliyatlarini ko'rib o'zlari ularni ishga taklif qilishlari mumkinligini ham oldindan rejalashtirib olishi kerak. Shunday imkoniyatdan unumli foydalangan maktab direktori o'z bitiruvchilarining ish bilan ta'minlash bo'yicha muammolariga ham yechim topa olgan bo'ladi. Shuningdek, tadbirlarda o'quvchi-yoshlarning iqtidori va qobiliyatlarini anglagan tashkilot va korxonalar rahbarlari shu yoshlarni o'z tashkilotlarida ko'rishini istab ularni o'qishga kirishlariga, zarur holatlarda kontrakt to'lovlarini to'lab berishlariga yordam berishlari mumkin bo'ladi. Shunday holatlarda o'z farzandlari uchun maktab direktori, mahalla rahbarlari va jamoatchilik vakillarining qilayotgan harakatlarini ko'rgan har qanday ota-ona shu tizimni yaratgan yurtboshimizdan, shunday yurtda yashayotganligidan minnatdor bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirishda mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini amalga oshirish o'quvchi-yoshlarni barkamol inson bo'lib yetishishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Qo'llab quvvatlash bilan kamol topayotgan yoshlarimiz esa kelajakda shu yurt ravnaqi uchun xizmat qiladi, shu yurtga xizmat qilishni o'zining muqaddas burchi deb biladi. Aslida hamkorlikda ishlashning ham asl maqsadi shundan iborat. Zero, yoshlarimizning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida "shaxs-oila-mahalla-ta'lim muassasasi-tashkilot-jamiyat" tamoyili asosida hamkorlik ishlari tizimli va uzviy tashkil etilsagina mahallalarimizning rivojlanishiga va jamiyatimizning yuksalishiga yana bir bora zamin yarata oldik deb hisoblashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. / <https://president.uz/oz/lists/view/8834>. 26.12.2025.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
4. O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2013-yil 22-aprel, O'RQ-350-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. – Toshkent, 2025-yil 8-sentabr, PQ-277-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qarori. – Toshkent, 2024-yil 13-iyun, 334-son.
7. Kadirova X.B. Yoshlarning huquqiy savodxonligi – jamiyat kelajagining garovi. “Tarbiya fani: yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislarini to'plami. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2021-yil 12-noyabr. – 342 b.
8. Холиқова Ш.А. Узлуксиз таълим тизимида ҳаракатлар стратегиясининг устувор йўналишларини татбиқ этиш. “Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар” халқаро илмий-амалий анжуман илмий ишлар тўплами. – Чирчиқ, 2019 йил 21-24 май.